

# GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA QASHQADARYO VILOYATINING TURISTIK-REKREATSION OBYEKTLARINING ELEKTRON XARITASINI SHAKLLANTIRISH

*Abduvaliyev Asror Abdusoliyevich<sup>1</sup>, Jumanazarov Javlon Shoxnazar o'g'li<sup>2</sup>*

<sup>1</sup>*TATU Qarshi filiali katta o'qituvchisi*

<sup>2</sup>*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

## *KEY WORDS*

|                  |            |
|------------------|------------|
| turizm           | sohasi,    |
| raqamlashtirish, | axborot    |
| tizimlari,       | resurslar, |
| standartlar,     | raqamli    |
| texnologiyalar,  | raqamli    |
| content,         | onlayn     |
| platformalar     |            |

## *ABSTRACT*

Ushbu maqolada turizmni raqamlashtirishda axborot tizimlari va resurslar bilan axborot almashishni ta'minlash standartlari qarab chiqilgan. Bunda turizmni raqamlashtirishda axborot tizimlari va resurslar bilan axborot almashishni ta'minlash standartlari ishlab chiqilgan.

## **Kirish**

Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyani amalga oshirishga qaratilgandir. Strategiyaning "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash"ga bag'ishlangan ustuvor yo'nalishida mahalliy sayyoohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish<sup>1</sup> vazifasi qo'yilgan.

## **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot natijasida axborotlarga asoslangan mintaqiy tahlil usullari qo'llanildi. Bunda bilish nazariyasining induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sentiz kabi usullaridan va yondashuvlaridan ham foydalnildi.

## **Tahlil va natijalar**

Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy siyosatning muhim bo'limi bu mintaqaviy turistik mahsulotning potensial va real iste'molchilarining maqsadli guruuhlarini aniqlash va ular bilan ishlash. Bu axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishni o'z ichiga oladi, ya'ni turizm industriyasining raqamli

iqtisodiyotga tez kirib borishi, bu esa o'z navbatida moddiy, boshqaruv va tashkiliy resurslarni talab qiladi.

Shubhasiz, turizm sohasini raqamlashtirish, har qanday boshqa moddiy ishlab chiqarish yoki faoliyat sohasi kabi, moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi, lekin shu sohaning o'ziga xos xususiyatlarini, xususan, tashkiliy-boshqaruv ehtiyojlarini hisobga olish kerak, chunki mavjud resurslar investitsiyalarisiz samaradorligini yo'qotishi mumkin.

Turizm sohasini raqamlashtirish, shu jumladan raqamli marketingning afzalliklaridan foydalangan holda, aloqa texnologiyalaridan foydalanish, bir tomongan, hududning turistik va rekreatsion salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga, boshqa tomongan, na faqat turistlar oqimi va turistik mahsulot sotishning barqaror o'sishini, balki ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishini ta'minlaydigan qulay ijtimoiy muhitning shakllanishini tezlashtiradi (korrupsiya va jinoyatchilikning kamayishi hisobiga).


Turistik-rekreatsion loyixalarda va hududlarni rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning istiqbolli yo'nalishi elektron (raqamli) xaritaga asoslangan

<sup>1</sup> [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/2022-2026\\_yillarga\\_mujallangan\\_yangi\\_uzbekistonning\\_taraqqiet\\_strategiyasi\\_tasdiqlandi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/2022-2026_yillarga_mujallangan_yangi_uzbekistonning_taraqqiet_strategiyasi_tasdiqlandi)

tematik geoaxborot tizimlarni ishlab chiqishdan iborat.

GAT elektron xaritalarni tuzish va tahrir qilish, topografik rejalar tuzish, hududlarning turistik va rekreatsion resurslarini boshqarish tizimlari, kadastrni yuritish imkoniyatlarini beradi.

GAT texnologiyalaridan foydalangan holda tayyorlangan elektron xaritada Qashqadaryodagi turistik obyektlar aks ettirildi. Elektron xaritada turistik obyektlarga oid barcha ma'lumotlar, ularning rasmlari va videolari asosida onlayn tarzda taqdim qilinadi.



*1-rasm. Qashqadaryo viloyati turistik-rekreatsion obyektlarining elektron xaritasi va unda obyektlarning piktogrammalar bilan ifodalanishi*

Qashqadaryo viloyati turistik-rekreatsion obyektlarining elektron xaritasida hududning turistik obyektlari maxsus piktogrammalar asosida aks ettirildi. Har bir obyekt haqida ishonchili ma'lumotlar rasm va videolar asosida joylashtiriladi, bu esa o'z navbatida turistlar uchun qulaylik yaratadi hamda ularning ushbu hududga tashrif buyurish ishtiyoqini oshiradi.

Biz tomonimizdan GAT texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan interaktiv xarita mintaqada turizm faoliyatini samarali boshqarish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shuning uchun GAT mantiqiy ravishda asosiy (uzoq muddatli) hamda tez o'zgaruvchan ma'lumotlarning kombinasiyasini darhol va uzoq muddatli qarorlar qabul qilish uchun qayd etadi. Ishlab chiqilgan elektron xarita hududdagi turistik

va dam olish maskanlari, jozibador turistik resurslari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlarini olish uchun mo'ljallangan.

Taklif qilingan elektron xaritadan Qashqadaryo viloyatining turistik jozibadorligini targ'ib qilish, turistlarning buyurtmali turlarning ishlab chiqilishiga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda o'rta, o'rta maxsus va oliv o'quv yurtlarida turizm fanlarini o'qitishda mukammal ko'rgazmali qurol sifatida foydalilanadi. Shu paytga qadar, Qashqadaryo viloyatining turistik va rekreatsion resurslarining hozirgi holatini o'zida aks ettiradigan elektron turistik xaritasi mavjud emas edi.

Turizm sohasni yanada rivojlantirishda mamlakat darajasida ham, mintaqaviy darajada ham axborot-tahliliy faoliyatni tashkil etish va axborotlar bilan ta'minlashga qaratilgan yangi kompyuter tizimlarini yaratish, turli xil uslubiy, axborot, texnologik va tashkiliy vazifalarni hal qilish lozim bo'lmoqda. Bu vazifalarning har tomonlama ko'rib chiqilishi va izchil amalgalashirilishi rivojlanishning yakuniy muvaffaqiyatiga erishish imkonini beradi.

Bugungi kunda turizmni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti, Samarqand iqtisodiyot va servis intituti "Turizmni innovasion rivojlantirish ilmiy maktabi", Qarshi davlat universiteti va boshqa turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlovchi oliygochlarda butun respublika bo'yicha turistik va rekreatsion resurslarni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. To'plangan ma'lumotlarni tizimlashtirish hamda ularni Qashqadaryo viloyatida turistik va rekreatsion resurslarni rivojlantirishning batafsil tematik kartografik tafsifini beruvchi, hududning turistik-rekreatsion resurslarining elektron xaritasi

ko'rinishida taqdim etish dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Ayni paytda ishlab chiqilgan interaktiv xarita hududdagi turistik-rekreatsion resurslar, ularning hozirgi holati va hududiy xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar olish, hududiy rejalashtirish va turizm sohasini boshqarish manfaatlaridan kelib chiqqan holda tahliliy ishlarni olib borish, hududda turizmning rivojlanish prognozlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Interaktiv xarita Qashqadaryo viloyatining turistik va rekreatsion resurslarining to'liq ma'lumotlarini, ularning rasmlari asosida taqdim etadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- obyektlarning joylashish va ixtisoslashish xususiyatlarini belgilovchi kartografik hujjatlar;
- har bir obyekt haqida tarixiy ma'lumotlar;
- har bir obyektning holati va jozibadorligini o'zida aks ettiruvchi rasmlli ma'lumotlar.



2-rasm. Qashqadaryo viloyatining interaktiv turistik xaritasi

Ushbu ishda biz Qashqadaryo viloyatidagi turistik-rekreatsion resurslar elektron xaritasini shakllantirish jarayonida quyidagi ma'lumotlar bazasini amalgalashirdik. Ayni paytda viloyat

hududida jami 1321 ta moddiy madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, shundan 1043 ta arxeologiya, 210 ta arxitektura, 43 ta monumental, 35 ta diqqatga sazovor joylardir. Shuningdek,

hududda 4 ta muzey, 4 ta sanatoriya, 54 ta joylashtirish vositalari, 1 ta hostel (2646 o'rinn), 100 tadan ortiq milliy va yevropa taomlari tayyorlaydigan restoran hamda milliy uslubdagi choyxonalar, 18 ta turoperatorlik subyektlari, 26 ta axborot markazlari, 1 ta geoturizm obyekti, 8 ta o'rmon xo'jaligi, 2 ta qo'riqxona hamda 1 ta agroturizm obyekti mavjud. Yaratilgan xarita o'zida mazkur salohiyatni aks ettiradi hamda unda Qashqadaryo viloyatidagi turistik-rekreatsion resurslarning rivojlanish xususiyatlarini va tendensiyalarini ko'rish imkoniyati yaratiladi.

Turoperatorlik va turagentliklari faoliyatida taklif etilayotgan xaritadan foydalanish turistlar sonini sezilarli darajada oshiradi, ularni nafaqat har bir obektning batafsil tavsifi, balki rang-barang fotosuratlari bilan ham o'ziga jalg etadi, turistik salohiyatning jozibadorlik darajasini targ'ib qilishga imkon beradi.

Boy tematik tarkibga, qulay interfeysga ega bo'lgan interaktiv xaritada taqdim etilgan ma'lumotlar bilan tanishgan ko'plab potensial turistlar mintaqamiz go'zalligini o'z ko'zlar bilan ko'rishni xohlashadi, ya'ni ularning Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurish ishtiyoqini yanada oshiradi. Bundan tashqari, shaharga kelgan har bir turist turmahsulotimizni elektron shaklda xarid qilib, telefon yoki kompyuterga yuklab olishi mumkin bo'ladi. Shunday qilib, turist o'z sayohatini sezilarli darajada yaxshilaydi, u shahar va viloyat bo'ylab, shu jumladan eng qiziqarli joylar bo'ylab ekskursiya marshrutini mustaqil tuzishi ham mumkin bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatining turistik-rekreatsion salohiyatini o'zida aks ettiruvchi GAT asosida ishlab chiqilgan interaktiv xarita, umumiylar bilan bir qatorda dam olish maskanlarini tafsiflovchi ixtisoslashtirilgan raqamlar xaritalarning ma'lumotlar bazalarini ham o'z ichiga oladi. Jumladan:

- mintaqaning turistik-rekreatsion rayonlashtirish sxemasi;
- turistik-rekreatsion imkoniyatlar va landshaftlar hamda tabiiy chegaralarning barqarorligi;
- mavjud va rejalashtirilgan turistik-rekreatsion obyektlar;
- turistik marshrutlarning mavjud va istiqbolli sxemalari;

- temir yo'llar va avtomobillar yo'llar sxemasi;
- iqlimiyl rayyoonlashtirish sxemasi;
- tarixiy-madaniy va arxitektura yodgorliklari;
- daryolar va suv havzalari qirg'oqdagi plyajlar hamda dam olish joylari sxemasi;
- ekologik xavfli va noqulay zonalar hamda hududlar;
- qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar va milliy bog'lar.

Bulardan tashqari, GATda matn ma'lumotlari, albomlar, turli xil tasviriy ma'lumotlar, fotosuratlar va boshqa qo'shimcha qiziqarli ma'lumotlar bilan bog'liq blok ham mavjud.

Kartografik va atributiv ma'lumotlar bazalari umumiyl geografik va tematik bloklarga bo'linadi, ularda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ixtisoslashtirilgan (turizm sohasining resurslari) hamda dam olishga oid ma'lumotlar saqlanadi va u turizm sohasidagi mutaxassislarga (menejerlar, gidlar, turizm instruktorlari), shuningdek chet elliklar, sportchilar, sayyohlar, etnograflar, maktab o'qituvchilari, universitet o'qituvchilari kabi istimolchilarga ixtisoslashgan.

Turistlarni jalg qilish turistik mahsulotlarni ishlab chiquvchilarning asosiy vazifasidir, lekin bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida olib borgan tadqiqotlarimizga ko'ra, viloyatning batafsil turistik salohiyati ya'ni uning turistik resurslari haqida ma'lumot beruvchi xarita hamda ko'rgazmali vositalarning yo'qligi ma'lum bo'ldi. Bu o'z navbatida Qashqadaryo viloyatida turizm biznesining rivojlanishini ancha murakkablashtiradi.

## Xulosa va takliflar

Shu tufayli taklif etilayotgan elektron xaritadan quyidagi jarayonlarda ajoyib ko'rgazmali quroq sifatida foydalanish mumkin:

- maktablarda geografiya, o'lkashunoslik va tarix darslarida yangi ma'lumotlarni tushuntirish va nazorat-sinov ishlarini o'tkazishda;
- o'rta maxsus ta'lim muassasalarida hamda o'quv markazlarida "Mehmonxona xizmati va turizm" yo'nalishlari talabalari hamda tinglovlchilari uchun maxsus fanlarni o'qitishda;

- olyi o‘quv yurtlarida “Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha)”, “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” kabi turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlanuvchi ta’lim yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun ma’ruzalar va seminarlar o‘tkazishda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi\\_2022\\_2026\\_yillarga\\_mujallangan\\_yangi\\_uzbekistonning\\_taraqqiet\\_strategiyasi\\_tasdiqlandi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi_2022_2026_yillarga_mujallangan_yangi_uzbekistonning_taraqqiet_strategiyasi_tasdiqlandi).
- <https://telegra.ph/Turizm-so%D2%B3asida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-rezhalar-11-05>.
- A.A.Сафарян. Туристский геопортал как инструмент визуализации результатов исследования и продвижения дестинации. ФГБОУ ВО “Пермский государственный национальный исследовательский университет”, г. Пермь, Российская Федерация. 2021.
- И.Тухлиев, А.Абдувалиев “Янги ўзбекистонда рақамили технологиялар орқали туризмнинг мультиплектив самарасини ошириш имкониятлари”. “Марказий Осиё минтақасида туризмни ривожлантириш истиқболлари: муаммо ва ечимлари” мавзусидаги халқaro илмиy-амалиy анжуман материаллари. ҚарДУ 2022 йил 26 май.
- Tuxliev I.S., Abduxamidov S.A. Mintaqaviy turizmda geoaxborot tizimidan foydalanishning nazariy asoslari / “O‘zbekistonning turizm sohasida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy qilish” mavzusidagi respublika ilmiy-amalii anjumani materiallari. Samarqand. -2019, b. 158-161